



# FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

O'tkir Utanov<sup>1</sup>

Shuhrat Shukurov<sup>2</sup>

<sup>1,2</sup>Samarqand viloyati xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish  
hududiy markazi o'qituvchilari

## TA'LIM JARAYONIDA KASBIY STANDARTNI TASNIFFLASH

**Annotatsiya.** Mamlakatimizda bugungi kunda kelajak ta'lmini rivojlantirish bo'yicha qator ishlar amalga oshirilib kelinmoqda. Ta'limg-tarbiya jarayoniga qaratilayotgan bunday islohotlar albatta o'z samarasini ko'rsatishi muqarrar. Ayniqsa ta'limg-tarbiya jarayonida pedagog xodimlar kasbiy standartini ishlab chiqish va uni amaliyotga joriy ko'zlangan maqsadlarga erishishga zamin yaratadi.

**Kalit so'zlar:** kasb, standart, kasbiy standart, malaka.

Bugungi kundagi global zamonaviy ishlab chiqarish davrida "malaka" va "kasbiy standart" kabi tushunchalar paydo bo'lib turli sohalarda asta-sekinlik bilan turli kasblarga tatbiq etilib kelinmoqda. Jamiyat rivojining asosi hisoblangan ta'limg-tarbiya jarayoni ham bundan mustasno emas.

Mamlakatimizda bugungi kunda kelajak ta'lmini rivojlantirish bo'yicha qator ishlar amalga oshirilib kelinmoqda. Ta'limg-tarbiya jarayoniga qaratilayotgan bunday islohotlar albatta o'z samarasini ko'rsatishi muqarrar. Ayniqsa ta'limg-tarbiya jarayonida pedagog xodimlar kasbiy standartini ishlab chiqish va uni amaliyotga joriy ko'zlangan maqsadlarga erishishga zamin yaratadi. Shu maqsadda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 25 yanvardagi PQ-4963 sonli qarorida asosiy vazifalar sifatida "kelajak maktabi, uning rahbari va o'qituvchisining modelini yaratish asosida xalq ta'limi

xodimlarining kasbiy standartlarini ishlab chiqish va doimiy tarzda rivojlantirib borish, ilmiy-tadqiqot faoliyatining ta'lim jarayoni bilan aloqalarini mustahkamlash” belgilab berilgan.

Ushbu qabul qilingan qarorlar ta'lim-tarbiya jarayonida O'qituvchilarning kasbiy standartini ishlab chiqish va uni amaliyotga joriy etishni talab etmoqda.

O'qituvchilarning kasbiy standarti deganda - bu o'qituvchilarning shaxsiyati va kasbiy mahoratiga qo'yiladigan barcha talablarini hisobga oladigan va ular faoliyatiga qo'yilgan yuksak talablardir. Ushbu talablar mukammal tarzda ishlab chiqilib faoliyatga joriy etilishi kerakli natijalarini kafolatlashga xizmat qiladi. Bu xususida quyidagi fikrlarni keltirish mumkin. O'qituvchilarning kasbiy standarti - bu o'qituvchilarning shaxsiyati, kasbiy mahoratiga va malaka darajasi ushbu meyorlarga muvofiq belgilanadi. Shuningdek, o'qituvchini ishga qabul qilishda va ish tavsifini tuzishda ham e'tiborga olish tavsiya etiladi.

O'qituvchilar uchun ishlab chiqilgan, tasdiqlangan kasbiy standart bo'yicha o'qituvchi ega bo'lishi kerak bo'lgan barcha bilim va ko'nikmalar batafsil bayon etilib, shuningdek ish yo'nalishiga qarab mehnat faoliyati ko'rsatiladi (maktabgacha ta'lim tashkilotidagi tarbiyachi, boshlang'ich maktab o'qituvchisi, fan o'qituvchilari va boshqalar).

Mamlakatmizda ta'lim-tarbiya jarayoniga kasbiy standartning joriy etilishi tufayli ta'lim tizimining asosini bolalarning turli toifalari (iqtidorli, nogiron, etim bolalar va boshqalar) bilan ishlashga qodir bo'lgan va etuk mutaxassislar (defektologlar, psixologlar, ijtimoiy o'qituvchilar va boshqalar) bilan samarali ishlaydigan zamonaviy mutaxassislar tayyorlanishiga zamin yaratadi.

Bunda har bir ta'lim turlari bo'yicha kasbiy standart talablari turlicha namoyon bo'ladi;

- maktabgacha ta'lim muassasalari o'qituvchilarining faoliyati.
- boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining faoliyati.
- umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim o'qituvchilarining faoliyati.
- professional ta'lim o'qituvchilarining faoliyati.
- oliy ta'lim tizimi professor-o'qituvchilarining faoliyati.
- malaka oshirish va qayta tayyorlash ta'lim tizimi o'qituvchilarining faoliyati.

Bundan tashqari fan sohalari (matematika, ona tili, kimyo texnologiya, musiqa va h.k lar) bo'yicha o'qitish kasbiy standarti tarzida ham namoyon bo'ladi.

Shu bilan birgalikda ta'lim ishtirokchilarining psixologik-fiziologik jihatlari, fanlarning o'ziga xos xususiyatlari va mazmuni, milliy mintalitet va geografik joylashuv kabi omillar o'qituvchi (tarbiya) (ta'lim muassasalari xodimlari: MTT, umumiy o'rta ta'lim, kasb-hunar maktablari, OTM va boshqalar; fanlar: fizika, matematika, musiqa, geografiya, texnologiya, chizmachilik va hokazo)lar uchun yagona standart va me'yorni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bizning ulug‘ ajdodlarimiz murabbiylik, ustozlik kasbini e’zozlab kelishgan. Ustoz qanday bo‘lish kerak? Ustoz qanday kasbiy va axloqiy fazilatlarga ega bo‘lish kerak? Ustoz jamiyatning tirkagi, suyanchig‘i bo‘lishligi to‘g‘rsida o‘zlarining qimmatli fikrlarini keltirib o‘tishgan.

Jaloliddin Davoniy bolalarga ta’lim berishda murabbiylarni “ma’naviy ota” deb hisoblaydi. Murabbiylarni o‘quvchilarini har tomonlama qo‘llab-quvvatlashlari lozim deb hisoblaydi. Bolalarga ta’lim-tarbiya berishni murakkab ish hisoblab, o‘qituvchilarini qat’iyatli, sabr-toqatli bo‘lishlarini ta’kidlaydi.

Bolalarни xulq-odobiga muallim ham salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin deb hisoblab, bunga qo‘pol va badjahl muallimlarning harakatlari ta’sir etadi. Jaloliddin Davoniy muallimni shunday ta’riflaydi:

- muallim sabr-toqatli bo‘lishi;
- qo‘pol va badjahl bo‘lmasligi;
- bola tarbiyasidan xabardor bo‘lishi;
- yaxshi xislatli bo‘lishi;
- muallimning tarbiyalash usuli otaning tarbiya usulidan yuqori bo‘lishi;
- bolaning o‘z xususiyatlarini bilish;
- bolalarning qaysi kasbga qiziqishlarini o‘rganib borish;
- har bir bolaning iqdironi, qobiliyatini aniqlay olish.

Ta’lim-tarbiya sohasida o‘rnak, namuna ko‘rsatgan ulug‘ ustozlar pirlar sifatida ham qadrlangan. Shu soha vakillariga nisbatan “ustoz”, “domla”, “usta” kabi ulug‘ so‘zлarni ishlatishgan. Chunki ushbu hurmatona so‘zlar ustozlik kasbiga sazovor bo‘lgan, mana shu muhim kasbiy namuna ko‘rinishida namoyon bo‘lgan insonlarga nisbatan qo‘llanilgan. Amir Temur bobomiz pirlari Mir Said Barakaning xizmatlari orqali buyuk sohibqironga aylandi, Mirzo Ulug‘bek bobomizning ustozi taniqli olim, temuriylar saroyidagi mashhur matematik va astronom Qozizoda Rumiy hazratlari Mirzo Ulug‘bekning dunyo fanida yuksak o‘rin egallashida muhim rol o‘ynadi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak kasbiy standart tushunchasi bugun paydo bo‘lgan andoza emas. Bu andoza, namunalar avloddan-avlodga o‘tib taraqqiy etib keldi. Bugungi kun pedagogining kasbiy standarti buyuk ajdodlar ma’naviy merosi, zamonaviy talablar, bugungi kun ehtiyojlari va talablaridan kelib chiqib ishlab chiqilishi maqsadga muvofiqdir.